

## BOSHLANG'ICH SINF YOSHDAKI BOLALAR DIQQATINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Buxoro viloyati Buxoro shahar Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri*

***Umonova Gulnora Barotovna***

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf yoshdagi bolalar diqqatini aniqlashning psixologik asoslari haqida ma'lumot berilgan.

Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvashlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda bolalar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. Boshlang'ich sinfdagi bolalik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchi boshlang'ich sinfdagi o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

Boshlang'ich sinfdagi bolalar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

- 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotganini;
- 2) ommaviy axborot ko'laming kengayishi tufayli boshlang'ich sinfdagi bolalar ongligi darajasining ko'tarilganligi;
- 3) bolalarning dunyo voqealaridan ,tabiat va jamiyat qonunlaridan yetarli darajada xabardorligi;
- 4) boshlang'ich sinfdagi bolalar bilan ishslashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va etnopsixologik tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;
- 5) oshkoraliq, ijtimoiyadolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 6) mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini-o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilganligi.

Boshlang'ich sinfdagi bolalarda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, kattalar

bilan boshlang'ich sinfdagi bolalarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo boshlang'ich ta'lif jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarini bayon qilish shakli, uslubi va usullari boshlang'ich sinfdagi bolalarga murakkablik qilib qo'yadi. Kattalarning yo'l-yo'ruqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan boshlang'ich sinfdagi bolalar ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida diqqati bo'linuvchan barqaror bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini qiziqarli rang-barang tashkil etish talab etiladi va maktab ruhshunosi tomonidan diqqat bo'yicha metodikalar, treninglar olib borishi lozim. Bolalarda diqqatning rivojlanish darajasini va uning xususiyatlarini diagnostika qilishning bir necha usullari mavjud. Quyida ulardan namunalar keltirib o'tamiz.

**"Landolt halqachalari"** - diqqatning barqarorligi va mahsuldorligini aniqlash. Bolaga Landolt halqachalari tasvirlangan varaq ko'rsatiladi va quyidagicha ko'rsatma beriladi: "Hozir biz sen bilan bitta o'yin o'ynaymiz. Bu o'yining nomi "Diqqatingni bir joyga to'pla va tezroq ishlashga harakat qil". O'yinda sen boshqa bolalar bilan musobaqalashasan. Biz sening qanday natijaga erishganining ko'ramiz va boshqa bolalarning natijalari bilan solishtiramiz. O'ylaymanki, sening natijalarining ham boshqalarnikidan qolishmaydi". Bolaga Landolt halqalari varaqasi ko'rsatiladi va nima qilish kerakligi tushuntiriladi. Halqa qatorini navbatma-navbat diqqat bilan ko'rib chiqib, ulardan ko'rsatilgan yorig'i borini topib, o'chirib chizib chiqishi kerak. Bu ish 5 daqiqa vaqt davomida bajariladi. Tekshiruvchi har bir daqiqa orasida "Chiz" deydi. Bola Landolt halqalarini ko'rib chiqayotganda, qaerga kelgan bo'lsa, o'sha javobga shu buyruqdan so'ng vertikal chiziq chizadi. 5 daqiqa vaqt o'tgach, tekshiriluvchi "To'xta" degan buyruqni eshitgandan so'ng o'sha erga 2 ta vertikal chiziq chizib, ishni to'xtatishi kerak. Tadqiqotchi natijalarni tahlil qilar ekan, bola daqiqada va umuman 5 daqiqada qancha halqalarni ko'rib chiqqani, 1 daqiqada 1 va 5 daqiqa davomida nechta xatoga yo'l qo'yganligini aniqlaydi.

**"Diqqat hajmini aniqlash"** - kichik maktab yoshi va undan katta yoshdagи o'quvchilar diqqatining hajmi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga qolgan

metodika asosida aniqlanadi. Bu metodikaning mohiyati shundan iboratki, unda bolaga 1-2 sekund davomida 8 ta kartochka navbatma-navbat ko'rsatiladi. Tekshiriluvchi bu rasmdagi nuqtalami eslab qolib, bo'sh kartochkalarga qo'yib chiqishi kerak. Bola diqqatining hajmi 10 ballik tizimda baholanadi.

**P'erон-Ruzer metodikasi** - metodika qurish-yasash xususiyatlari, maqsadga yo'nalgan ko'nikmalami egallash imkoniyatlarini, harakatlarning yangi usullarini o'zlashtirishni o'rghanishga mo'ljallangan. Bu metodika yordamida ixtiyoriy diqqat hajmi, uning barqarorligi haqida bilib olish mumkin. Tajriba o'tkazish uchun 10 qatordan geometrik figuralar chizilgan maxsus qog'oz varag'i oldindan tayyorlanadi. Yuqoridagi to'rtta figuraga turli belgilar qo'yib chiqilib, qog'ozdagi boshqa figuralarga ham xuddi shunday belgilar qo'yib chiqish sinaluvchiga taklif etiladi. U o'z harakatlarini namuna bilan solishtirishi mumkin. Olingan natijalarni tahlil qilish va qayta ishslashda 100 ta figurani chizishga ketgan vaqt, ehtimoli bo'lgan xatolar soni, topshiriqni bajarish xarakterini tahlil qilishda yosh me'yorlarini hisobga olish zarur.

**"Shult jadvali bo'vicha sonlarni izlas"** - bu metodikadan diqqatning ko'chish va bo'linish xususiyatlarini, sensomotor reaktsiyalar tezligini o'rghanish uchun foydalilanadi. Sinaluvchilarga 1 dan 25 gacha sonlar ixtiyoriy joylashtirilgan 5 ta jadval ketma - ket ko'rsatiladi. U sonlarni tartib bilan izlab ko'rsatishi va ovoz chiqarib aytishi kerak. Har bir topshiriqni bajarish vaqtin tadqiqot qaroriga yozib boriladi. Sinaluvchi faoliyatini miqdoriy baholashdan tashqari sensomotor reaktsiyalar tezligining sifatiy tahlili ham amalga oshiriladi. "Topshiriqni bajarish xususiyatlari" bo'limiga sinaluvchi o'zini qanday tutganligi, verbal va emotsiyal reaktsiyalari yozib boriladi. 6-7 yoshli bolalar uchun bitta jadvalni 1-1,5 daqiqa qarash me'yoriy hisoblanadi, o'rtacha o'quvchilar uchun 45 soniyadan 1 daqiqagacha me'yor hisoblanadi. Katta bog'cha davridagi bolalar va 1-2-sinf o'quvchilari ba'zi sonlarni chalkashtirib yuboradilar. 10-12 yoshli bolalar uchun sensomotor reaktsiyalar tezligi oshishi, harakatlarning avtomatlashuvi xarakterlidir. Har bir topshiriqni bajarish xususiyatlari hamda 5 ta jadval bo'yicha olingan natijalami tahlil qilib, tadqiqotchi nerv jarayonlari o'zgarishini, jismoniy va ruhiy zerikish hodisasini aniqlaydi. Masalan, agar har bir keyingi topshiriqni bajarish vaqtin oshib borsa, tez charchash, ixtiyoriy diqqat darajasining susayganligidan

dalolat beradi. Bu metodikadan foydalanish bolalarning diqqati xususiyatlarini tajribada o'rganish imkonini beradi.

**“Krepelin bo'yicha sanash va hisoblash” metodikasi** - bu metodikadan murakkab sezgi harakat reaktsiyalarini, ish qobiliyatini, ixtiyoriy diqqat barqarorligini, psixik jarayonlar kechishining tezligini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Ushbu metodikani qo'llash uchun sinaluvchi bir necha o'nliklar ichida eng sodda arifmetik operatsiyalar - qo'shish va ayirishni bilishi kerak. Krepelin metodikasida sinaluvchiga qo'shilishi va ayrilishi kerak bo'lgan sonlar jufti yozilgan maxsus qog'oz taklif etiladi. Krepelin bo'yicha hisoblashda, (masalan: 30 da 3 gacha, 100 dan 7 gacha) tadqiqot qarorida to'xtab qolishning uzoqligi va xatolar xarakteri qayd etib boriladi. Masalan: 30-3....27....24....21....19\*....18....15....12....9....6....3....0. Xato hisoblashlar ham hisobga olinib (\*) bilan belgilab qo'yiladi, sinaluvchiga xatolarni to'g'rilash taklif qilinadi. Vaqt nuqta bilan qayd etiladi. Qoidaga ko'ra “nuqta” shartli ravishda 1 soniyaga to'g'ri keladi. Shuni qayd etish lozimki, bu metodika aqliy ish qobiliyati jadalligini o'rganishga ham mo'ljallangan. Bajarilgan qo'shish va ayirishlar soni ko'pligi aqliy malakaning avtomatlashganidan, diqqatni uzoq vaqt bir narsaga to'play olish qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi. Bajarilgan topshiriqlar sonining kamligi, ko'p to'xtab qolish faol diqqatning barqaror emasligidan. psixik tez charchashga moyillikdan dalolat beradi.

**“Burdon korrektur sinovi” metodikasi-** boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari faol diqqatining xususiyatlarini, uning ko'chishi xususiyatlarini o'rganish uchun B.Bourdonning korrektur sinovi metodikasidan foydalanish mumkin. Bu metodika diqqatning tebranishi, ko'rish analizatori uzoq vaqt ishlaganda bir xil ko'rvu qo'zg'atuvchilariga nisbatan sinaluvchining charchashini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun P.A.Rudik tomonidan o'zgartirilgan Burdon testi maxsus qog'ozda ko'rsatiladi. Qog'ozda harflar tasodifiy ravishda yozilgan bo'lib, sinaluvchi ularning ikkitasi to'rttasini o'chirishi kerak. Bunda eksperimentator har 30-60 soniyada sinaluvchi qalami turgan joyni belgilab qo'yadi, shu bilan birga barcha topshiriqlari bajarish uchun ketgan umumiyligi vaqt ham hisobga olinadi. Tajribani bir sinaluvchi ustida individual va guruh bilan o'tkazish mumkin. Tajribani boshlashdan oldin,

sinaluvchilarga ko'rsatma beriladi va 1 daqiqa davomida mashq qildirib o'rgatiladi, mashqlardan so'ng sinaluvchi asosiy vazifani bajarishga kirishadi. Tajriba 5 daqiqa davom etadi. Tadqiqot natijalarini qayta ishslash maxsus qog'oz orqali amalga oshiriladi. Unda o'chiriladigan harflar o'rni va o'chiriladigan harflar soni o'ng tomonda va har bir qatorga o'tganda bu o'chiriladigan sonlarning yig'indisi chap tomonda beriladi. Kalit (blank)ni sinaluvchi qog'oziga qo'yib tadqiqotchi miqdoriy tahlilni osongina olib borishi mumkin. Korrektur sinovni bajarish natijalari (diqqatning to'planganligi, topshiriqni bajarish tezligi, diqqatning ko'chishi)ni miqdoriy aniqlash mumkin.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. E.G'oziyev Umimiy psixologiya 2-qism 2002y 144-147
2. I.F.Xaydarov., I.N.Xalilova.: Umumiy psixologiya darsligidan. 2009y 115-117
3. P.I. Ivanov M.E.Zufarova Umumiy psixologiya 2008y 257-262
4. M.Zufarova Umumiy psixologiya 2010y 111-118
5. Z.Nishanova, Z.Qurbanova, S.Abdyiev psixodiagnostika va eksperimental psixologiya T-2011y 93-98